

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**ILM-FAN VA TA'LIM SOHASIDAGI DAVLAT TASHKILOTLARIDA ILMIY, ILMIY-PEDAGOGIK VA MEHNAT FAOLIYATI BILAN SHUG'ULLANUVCHI ILMIY DARAJAGA EGA XODIMLARGA QO'SHIMCHA HAQ TO'LASH TARTIBI  
TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi **Qonuni** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-son **qaroriga** muvofiq, shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish, ilm-fan va ta'lism sohasida yuqori malakali kadrlarning bilim va tajribalarini amalda qo'llashni moliyaviy rag'batlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Ilm-fan va ta'lism sohasidagi davlat tashkilotlarida (keyingi o'rinnlarda tashkilot deb ataladi) ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlarning lavozim maoshiga:

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalar) (keyingi o'rinnlarda falsafa doktori deb ataladi) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun — lavozim maoshining 30 foizigacha;

fan doktori (Doctor of Science) (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan daraja) (keyingi o'rinnlarda fan doktori deb ataladi) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun — lavozim maoshining 60 foizigacha qo'shimcha haq to'lash tizimi joriy etilsin.

2. Ilm-fan va ta'lism sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

a) qo'shimcha haq ushbu qarorga muvofiq tegishli mezonlarni bajarilishini baholash natijalari bo'yicha hamda tarkibiy bo'linma rahbarining taqdimnomasi va tashkilot kollegial organi qarori asosida har bir xodimning ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyatiga qo'shgan aniq hissasini hisobga olgan holda belgilanadi;

b) ushbu qaror bilan joriy etilayotgan qo'shimcha oylik va bir martalik to'lovlar miqdori bir oyda — falsafa doktori ilmiy darajasiga ega xodimlar uchun lavozim maoshining 30 foizidan hamda fan doktori ilmiy darajasiga ega xodimlar uchun lavozim maoshining 60 foizidan oshmasligi kerak;

v) O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar xodimlariga ushbu qarorga muvofiq qo'shimcha haq belgilanishi bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

g) ushbu qarorga muvofiq qo'shimcha haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hajmini rejalashtirish falsafa doktori ilmiy darajasiga ega xodimlar lavozim maoshining 30 foizi miqdorida qo'shimcha haq va fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan xodimlar lavozim maoshining 60 foizi miqdoridagi qo'shimcha haqning eng ko'p hajmi ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda band bo'lgan shtat birligi soni bo'yicha amalga oshiriladi;

d) tashkilotga qo'shimcha haqni moliyalashtirish uchun ajratilgan va moliya yili yakuniga qadar ishlatilmay qolgan budget mablag'lari o'rnatilgan tartibda budget tashkilotining rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi va quyidagi maqsadlarda sarflanadi:

tashkilotning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bino va inshootlarni, ilmiy laboratoriyalarni texnik shartlar asosida joriy ta'mirlash va jihozlash, xalqaro ilmiy axborot bazalari va kutubxona resurslariga ularish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish;

xodimlarni yetakchi milliy va jahonda eng yuqori 1000 talik reytingga kiruvchi yoki yo'nalishlar bo'yicha jahonda eng yuqori 100 talik reytingga kiruvchi xorijiy ilmiy-ta'lism muassasalariga qayta tayyorlov, malaka oshirish va amaliyotga yubarish orqali kadrlar ilmiy

salohiyatini oshirish, xodimlar tomonidan xorijiy ilmiy anjumanlarda ma’ruza bilan ishtirok etish va qatnashish, xalqaro tan olingan ma’lumotlar bazasidagi yetakchi ilmiy jurnallarda ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini nashr qilish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2020-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetining tasdiqlangan parametrlari doirasida ushbu qarorda nazarda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag‘larni ajratsin.

5. Tizimida tashkilotlar mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralar:

ushbu qarorga muvofiq xodimlarga qo‘srimcha haq belgilanishining asoslanganligi, shuningdek, ularni to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borsin;

har yili 25-dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ushbu qarorga muvofiq qo‘srimcha haq to‘lash huquqiga ega bo‘lgan xodimlarning band bo‘lgan shtat birligi soni to‘g‘risida, shuningdek, ularni to‘lash uchun ajratilgan mablag‘lar, shu jumladan, moliya yili oxirida sarf qilinmagan moliya hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etib borsin;

bir oy muddatda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjalarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “Budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 1999-yil 3-sentabrdagi 414-son **qaroriga** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 1999-y., 9-son, 51-modda) **2-ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vaziri I.Y. Abdurahmonov hamda Vazirlar Mahkamasining Telekommunikatsiyalar, IT-tehnologiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minalash kotibiyati zimmasiga yuklansin.

## O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,  
2019-yil 24-dekabr,  
1030-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-son **qaroriga**  
**1-ILOVA**

### **Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo‘srimcha haq to‘lash tartibi to‘g‘risida**

#### NIZOM

##### **1-bob. Umumi qoidalar**

1. Ushbu Nizom ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga (shu jumladan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga) qo‘srimcha haq to‘lash tartibini belgilaydi.

2. Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarining fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarning ularga tenglashtirilgan darajasiga) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan darajasiga) ega bo‘lgan xodimlariga asosiy ish joyi bo‘yicha ushbu Nizomga muvofiq qo‘srimcha haq belgilanadi.

3. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

lavozim maoshi — kalendar oyi uchun muayyan murakkablikdagi mehnat (lavozim) vazifalarini bajarish uchun xodimning mehnatiga haq to‘lashning qonun hujjalariiga muvofiq belgilangan miqdori (kompensatsiya, rag‘batlantirish va ijtimoiy to‘lovlar, nafaqalar va boshqa qo‘srimcha to‘lovlarni hisobga olmagan holda);

qo‘srimcha haq — xodimlar mehnatining sifati va natijadorligini rag‘batlantirish maqsadida belgilangan lavozim maoshiga nisbatan foiz hisobida belgilangan to‘lov;

bir martalik qo'shimcha haq — amalga oshirilgan muayyan ish bo'yicha natijaga erishilgani uchun to'lanadigan bir martalik qo'shimcha to'lov;

har oylik qo'shimcha haq — amalga oshirilgan muayyan ish bo'yicha natijaga erishilgani uchun har oyda to'lanadigan qo'shimcha to'lov;

ilm-fan va ta'lif sohasidagi davlat tashkiloti (keyingi o'rnlarda tashkilot deb ataladi) — ustav asosida ilmiy va ta'lif faoliyati bilan shug'ullanuvchi budget tashkiloti yoki budget mablag'lari oluvchi tashkilot;

intellektual faoliyat natijasi — intellektual mulk obyekti, shu jumladan, fan, adabiyot, san'at, ijro, fonogramma, efir yoki kabel orqali namoyish etilgan ko'rsatuvlar, ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, oshkor qilinmagan ma'lumotlar, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau), tovar belgilari, firma nomlari, tovar kelib chiqqan joy nomlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan intellektual faoliyat natijasi.

4. Tashkilotning kollegial organi (keyingi o'rnlarda kollegial organ deb ataladi) ushbu Nizomga muvofiq muayyan mezonlar asosida tarkibiy bo'linma rahbarining tavsiyasiga ko'ra xodimga qo'shimcha haq miqdori va to'lov davrini belgilash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Tashkilot rahbari uchun ushbu Nizomga muvofiq qo'shimcha haq belgilash yuqori turuvchi tashkilot roziligi bilan amalga oshiriladi.

Erishilgan natijalarning mezonlarga muvofiqligini baholash taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

Kollegial organ qo'shimcha haq belgilash to'g'risida qabul qilingan qarorning xolisligi uchun mas'ul hisoblanadi.

Tashkilotning yuqori turuvchi organlari qo'shimcha haq belgilash bo'yicha kollegial organlar ishini tashkil etish tartibini tasdiqlaydi.

5. Qo'shimcha haq xodimning lavozim vazifalari, ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi, xalqaro grantlar, shartnomalar va boshqa majburiyatlar bo'yicha bajarilgan ishlar doirasida amalga oshirilgan qo'shimcha ish hajmi va yuqori sifatli natija uchun belgilanadi.

Qo'shimcha haq to'lashda erishilgan natijalar bir marta hisobga olinadi.

6. Qo'shimcha haq bir martalik yoki oylik shaklda belgilanishi mumkin. Qo'shimcha oylik to'lovini belgilashning eng ko'p muddati bir yildan (12 oydan) oshmasligi kerak.

7. Qo'shimcha haq xodim asosiy lavozim bo'yicha egallab turgan stavkasiga mutanosib ravishda belgilanadi.

## **2-bob. Oliy ta'lif, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tashkilotlarida qo'shimcha haq belgilash talablari, miqdori va muddatlari**

8. Oliy ta'lif, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tashkilotlarida qo'shimcha haq kadrlar tayyorlash, shu jumladan, yuqori malakali va ilmiy faoliyat sifatini oshirish va ilmiy faoliyat natijalarini iqtisodiyotning real sektoriga tijoratlashtirish, shuningdek, oliy ta'lif muassasalarining mamlakat ichida va xorijda nufuzini oshirishga qo'shgan hissasiga qarab belgilanadi.

9. Lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha haq xodimning faoliyati natijalari asosida quyidagicha o'rnatilishi mumkin:

a) Internet jahon axborot tarmog'idagi axborot ta'lif resurslariga o'z o'quv-uslubiy majmularini (modullarini) joylashtirilganligi uchun:

har bir majmua (modul) uchun o'zbek yoki rus tilida, shuningdek, chet tili mutaxassisliklari bo'yicha lavozim maoshiga nisbatan 5 foizgacha;

xorijiy tilda (til mutaxassisligidan tashqari) har bir majmua (modul) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiyligida qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 15 foizdan oshmasligi lozim;

b) hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy va laboratoriya vositalaridan keng foydalangan holda yangi o'quv mahsulotlari (trening kurslari, uslubiy ta'minotli o'yinlar)ni ishlab chiqqani va joriy etgani uchun:

o‘zbek yoki rus tilida, shuningdek, til mutaxassisliklari bo‘yicha chet tilida har bir mahsulot (majmua) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

xorijiy tilda (til mutaxassisliklaridan tashqari) har bir mahsulot (majmua) uchun lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

v) o‘zining o‘quv-uslubiy majmularini o‘quv dasturiga kiritganligi va chet tilida (MDH davlatlari tillaridan tashqari) tashkil qilingan har bir kurs (modul) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foiz miqdorida belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 20 foizdan oshmasligi lozim;

g) birinchi mingtalik (top-1000) yoki fan yo‘nalishlari bo‘yicha birinchi yuztalik (top-100) xalqaro reytinglar onlayn kursiga kiritilgan har bir ma’ruza uchun lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

d) ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarda, respublika miqyosidagi ilmiy-texnik kengashlarda har bir a’zolik (ishtirok etganlik) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 20 foizdan oshmasligi lozim;

e) ilmiy darajalar beruvchi xorijiy ilmiy, ekspertlik, ilmiy-texnik kengashlarda a’zolik (ishtirok etish) uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

j) doimiy faoliyat yuritadigan ilmiy ixtisoslashgan seminarlarni tashkil etganligi va unda ishtiroki uchun:

doimiy a’zo sifatida lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

rahbar sifatida lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi;

z) Scopus, Web of Science yoki boshqa umume’tirof etilgan indeksatsiyalangan ma’lumotlar bazalari jurnallarida e’lon qilingan har bir maqola (monografiya) uchun mualliflarga lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

i) o‘quv jarayonida amaliy qo‘llanadigan yoki ishlab chiqarishga joriy qilingan intellektual faoliyat natijasi borligi uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha miqdorida belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 10 foizdan oshmasligi lozim;

k) ixtiro va/yoki foydali modelga xorijiy patent olganlik uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha miqdorida belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

l) ilmiy, ilmiy-ommabop jurnallar tahrir hay’ati a’zoligi uchun:

mahalliy jurnallarda lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha;

xorijiy jurnallarda lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo‘srimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim.

10. Lavozim maoshiga bir martalik qo‘srimcha haq ma’lum bir davr uchun erishilgan natijalar yig‘indisidan kelib chiqqan holda yoki quyidagi zarur shartlar bajarilganda belgilanadi:

a) ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarda har bir rasmiy opponentlik uchun:

falsafa doktorlari (PhD) darajasiga lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

fan doktorlari (DSc) darajasiga lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha.

Mazkur talab asosida bir martalik qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan falsafa doktorlari (PhD) darajasiga 30 foiz va fan doktorlari (DSc) darajasiga 60 foizdan oshmasligi lozim;

b) dissertatsiyaning o'z vaqtida yoki muddatidan oldin himoya qilinishini ta'minlaganligi uchun:

falsafa doktorlari (PhD) ilmiy rahbarlariga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha; fan doktorlari (DSc) ilmiy maslahatchilariga lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha;

v) tashkilotning mezbon sifatida ishtirok etadigan nufuzli xalqaro konferensiyani (simpozium, davra suhbat) tashkil etganligi uchun, xodimning qo'shgan hissasini hisobga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha;

g) ilmiy-pedagogik faoliyatga oid xalqaro tadbirdarda (forumlar, konferensiyalar, kongresslar, anjumanlar va boshqalar) taklifga asosan ma'ruza bilan qatnashganligiga har bir ishtiroki uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

d) xorijiy xalqaro ko'rgazmalarda o'zlarining ilmiy yutuqlarini ommalashtirishda rasmiy ishtirok etganligiga har bir ko'rgazma uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

e) ixtisoslashgan xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir ilmiy nashr uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

j) davlat boshqaruvi organlarining so'roviga binoan bajariladigan tadqiqotlarga ekspert xulosalarini tayyorlash uchun qo'shgan hissasini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha.

### **3-bob. Ilm-fan sohasidagi tashkilotlarda qo'shimcha haq to'lash mezonlari, hajmi va muddatlari**

11. Ilm-fan sohasidagi tashkilotlarda qo'shimcha haq yangi xodisa va qonuniyatlarni kashf qilishdagи ishtiroki, innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirganligi, yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlashda qo'shgan hissasi uchun belgilanadi.

12. Lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha haq xodimning faoliyati natijalari asosida quyidagicha o'rnatilishi mumkin:

a) ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarda, respublika miqyosidagi ilmiy-texnik kengashlarda har bir a'zolik (ishtirok etganlik) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha bo'lgan miqdorda belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 20 foizdan oshmasligi lozim;

b) ilmiy darajalar beruvchi xorijiy ilmiy, ekspertlik, ilmiy-texnik kengashlarda a'zolik (ishtirok etish) uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha bo'lgan miqdorda belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

v) doimiy faoliyat yuritadigan ilmiy ixtisoslashgan seminarlarni tashkil etganligi va unda ishtiroki uchun:

doimiy a'zo sifatida lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

rahbar sifatida lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi;

g) Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallarida e'lon qilingan har bir maqola (monografiya) uchun mualiflarga lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

d) o'quv jarayonida maxsus kurslarni tashkil qilgani uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi;

e) ixtiro yoki foydali modelga xorijiy patent olganlik uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

j) ilmiy, ilmiy-ommabop jurnallar tahrir hay'ati a'zoligi uchun:

mahalliy jurnallarda lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha;

xorijiy jurnallarda lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

z) xorijiy ilmiy loyihalarda ishtirok etganligi uchun:

tadqiqot guruhi a'zosi sifatida lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha;

loyiha rahbari sifatida lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi;

i) xorijiy jurnallar tahririyatida ishtirok etgan har bir a'zolik uchun lavozim maoshi haqiga 15 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan 30 foizdan oshmasligi lozim;

k) oliy ta'lif muassasalarida har bir joriy etilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar nashri uchun lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

l) yangi innovatsion korxona tashkil etganligi uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

13. Lavozim maoshiga bir martalik qo'shimcha haq xodimning oxirgi 12 oy davomidagi faoliyati natijalari asosida quyidagicha o'rnatiladi:

a) ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarda har bir rasmiy opponentlik uchun:

fan nomzodi yoki falsafa doktorlari (PhD) darajasiga lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

fan doktorlari (DSc) darajasiga lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha.

Mazkur talab asosida bir martalik qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan falsafa doktori (PhD)ga 30 foiz va fan doktori (DSc)ga 60 foizdan oshmasligi lozim;

b) o'z vaqtida yoki muddatidan oldin ilmiy daraja olish uchun tadqiqot ishini himoya qilganda:

falsafa doktori (PhD) ilmiy rahbariga himoya qilganligi to'g'risida dalil taqdim qilganida lavozim maoshiga nisbatan 50 foizgacha;

fan doktori (DSc) ilmiy rahbariga himoya qilganligi to'g'risida dalil taqdim qilganida lavozim maoshiga nisbatan 100 foizgacha;

v) xalqaro konferensiya (anjuman, davra suhbat) tashkil qilganligi uchun har olti oyda bir martadan ko'p bo'lмаган holda qo'shgan barcha hissasi uchun lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha miqdorda, agar ushbu tadbirda tashkilot qabul qiluvchi tomon bo'lsa;

g) tashkilotning mezbon sifatida ishtirok etadigan xalqaro konferensiyani (simpozium, davra suhbat) tashkil etganligi uchun, xodimning qo'shgan hissasini hisobga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan 50 foizgacha olti oyda bir marta;

d) xalqaro ilmiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa ilmiy-ma'rifiy tadbirlarda (forumlar, konferensiyalar, kongresslar, anjumanlar, va boshqalar) taklifga asosan ma'ruza bilan qatnashganligiga, har bir ishtiroki uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

e) xorijiy xalqaro ko'rgazmalarda o'zlarining ilmiy yutuqlarini ommalashtirishda rasmiy ishtirok etganligiga har bir ko'rgazma uchun lavozim maoshiga nisbatan 50 foizgacha;

j) nufuzli xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir tadqiqot natijasi uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

z) bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ekspert xulosalarini tayyorlash uchun qo'shgan hissasini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha.

#### **4-bob. O'rta maxsus, kasb-hunar va umumiy o'rta ta'lif tashkilotlarida belgilanadigan qo'shimcha haq miqdori va muddatlari**

14. Lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha haq xodimning joriy yilda oxirgi 12 oy davomidagi faoliyati natijalari tahliliga ko'ra:

a) yoshlarni tarbiyalashga oid har bir ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan ilmiy-metodik qo'llanma, ilmiy-tahliliy uslub (yondashuv)lar uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

b) ta'lim va tarbiya sohasida tegishli tashkilot bilan bog'liq ilmiy maqola (monografiya) nashr qilganligi uchun:

jurnalning darajasi va muhimligidan kelib chiqqan holda milliy ilmiy jurnallardagi nashr uchun lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha;

xalqaro jurnallarda e'lon qilingan har bir maqola (monografiya) uchun mualliflarga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

15. Lavozim maoshiga bir martalik qo'shimcha haq ma'lum bir davr uchun erishilgan natijalar yig'indisidan kelib chiqqan holda yoki zarur shartlar bajarilganda belgilanadi:

a) fan olimpiadalari g'oliblarini tayyorlagani uchun lavozim maoshiga nisbatan:

tuman va viloyat miqyosdagi natijalar uchun 15 foizgacha;

respublika miqyosdagi natijalar uchun 20 foizgacha;

xalqaro miqyosdagi natijalar uchun 30 foizgacha;

b) zamonaviy o'quv-ko'rgazmalarini yaratganligi uchun 10 foizgacha;

v) noan'anaviy yo'nalishdagi (robototexnika, mental arifmetika va boshqalar) o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilganligi uchun 30 foizgacha;

g) o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qo'shgan hissasi uchun 20 foizgacha.

### **5-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida belgilanadigan qo'shimcha haq miqdori va muddatlari**

16. Lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha haq xodimning joriy yilda oxirgi 12 oy davomidagi faoliyati natijalari tahliliga ko'ra:

a) maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashga oid har bir ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan ilmiy-metodik qo'llanma, ilmiy-tahliliy uslub (yondashuv)lar uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

b) ta'lim va tarbiya sohasida tegishli tashkilot bilan bog'liq ilmiy maqola (monografiya) nashr qilganligi uchun:

jurnalning darajasi va muhimligidan kelib chiqqan holda milliy ilmiy jurnallardagi nashr uchun lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha;

xalqaro jurnallarda e'lon qilingan har bir maqola (monografiya) uchun mualliflarga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

17. Lavozim maoshiga bir martalik qo'shimcha haq ma'lum bir davr uchun erishilgan natijalar yig'indisidan kelib chiqqan holda yoki quyidagi zarur shartlar bajarilganda belgilanadi:

a) ko'rik tanlovlardagi ishtiroki uchun lavozim maoshiga nisbatan:

tuman va viloyat miqyosdagi natijalar uchun 15 foizgacha;

respublika miqyosdagi natijalar uchun 20 foizgacha;

b) o'yin tamoyiliga asoslangan zamonaviy mashg'ulotlarni tashkil qilganligi uchun 15 foizgacha;

v) tarbiyanuvchilarni ilm-fanga qiziqishini oshirishga qo'shgan hissasi uchun 20 foizgacha.

### **6-bob. Qo'shimcha haq mablag'larini rejorashtirish va moliyalashtirish**

18. Tashkilot tomonidan qo'shimcha haq belgilash uchun budjet mablag'lari hajmini rejorashtirish ilmiy darajali xodimlarga shtat birligi sonidan kelib chiqib, qo'shimcha haqning eng ko'p miqdorida belgilanadi:

falsafa doktori (PhD) yoki fan nomzodi ilmiy darajasi (yoki shunga tenglashtirilgan xorijiy davlatlar darajasi)ga ega xodimlarning lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

fan doktori (PhD) ilmiy darajasi (yoki shunga tenglashtirilgan xorijiy davlatlar darajasi)ga ega xodimlarning lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha.

Mazkur qo'shimcha haqni moliyalashtirish ilmiy darajali xodimlarning haqiqiy shtat birligi sonidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

19. Xodimlarga qo'shimcha haqni belgilash bilan bog'liq xarajatlar shtat jadvalida alohida aks ettiriladi va tashkilotning xarajatlar smetasida alohida modda bilan budget klassifikatsiyasi xarajatlarida nazarda tutiladi.

20. Tashkilot ushbu nizomga mos ravishda, majburiy tartibda budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasiga kelib tushadigan va undan sarflanadigan pul mablag'larini alohida hisobini yuritadi.

### **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

21. Ushbu Nizom bo'yicha ajratiladigan pul mablag'larining maqsadli, samarali va oqilona ishlatilishi, shuningdek, qo'shimcha haq miqdori asoslangan va to'g'ri hisoblanishi hamda belgilanishi uchun tashkilot rahbari shaxsan javobgar hisoblanadi.

22. Mazkur Nizom talablari asosida qo'shimcha haq to'lash qo'shimcha har oylik va bir martalik to'lovlari miqdori bir oyda fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan) ilmiy darajasiga ega bo'lgan xodimlar uchun lavozim maoshining 30 foizidan hamda fan doktori (DSc) (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan daraja) ilmiy darajasiga ega bo'lgan xodimlar uchun lavozim maoshining 60 foizidan oshmasligi kerak.

23. Ushbu Nizom talablarini buzilishida aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

24. Tizimida tashkilotlar mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar qonun doirasida tashkilot kollegial organlarning qo'shimcha haq miqdorini o'rnatishni tashkil qilishi ustidan nazorat qiladi.

25. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarda faoliyat yurituvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga mazkur Nizom talablari asosida budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan qo'shimcha haq to'lanishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-sun qaroriga  
2-ILOVA

### **Vazirlar Mahkamasining "Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999-yil 3-sentabrdagi 414-sun qaroriga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. **6-band** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar".

2. **Ilovada:**

a) **26-band** quyidagi matndagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar";

b) **29-bandda:**

quyidagi matndagi beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida budget tashkilotini rivojlantirish jamg'armasiga ajratilgan mablag'lar ushbu qarorlarda nazarda tutilgan maqsadlarga sarflanadi";

**beshinchi xatboshi** oltinchi xatboshi deb hisoblansin.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.12.2019-y., 09/19/1030/4191-sun)*